






## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-iyunida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 26 506,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 1,5 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,4 % ga yetdi.



### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, % da
		2019-yil	2020-yil	
	<b>I. YaHM</b>	<b>22 699,8</b>	<b>26 506,3</b>	<b>101,5</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	21 012,1	25 312,8	101,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 687,7	1 193,5	100,8
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>21 012,1</b>	<b>25 312,8</b>	<b>101,6</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	<b>4 820,7</b>	<b>6 040,6</b>	<b>103,2</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>10 926,3</b>	<b>13 245,2</b>	<b>101,8</b>
	sanoat	9 865,0	11 956,3	101,8
	qurilish	1 061,3	1 288,9	101,6
	<b>Xizmatlar</b>	<b>5 265,1</b>	<b>6 027,0</b>	<b>99,6</b>

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, % da
		2019-yil	2020-yil	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 536,6	1 723,3	100,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 080,9	1 164,9	98,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 647,6	3 138,8	99,9

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 8 979,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkichning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishsiz qoldi.



**Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 95,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,5 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 1,0 % punktga ko`paydi va hisobot davrida 23,9 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog`ining ulushi 47,2 % dan iborat bo`lib, 0,3 % ga oshdi, qurilishniki esa 5,1 % ni tashkil etib o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`zgarishsiz qoldi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 23,8 % ni tashkil qildi va o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 1,3 % punktga pasaydi.





**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)

		2019-yil	2020-yil
	<b>I. YaIM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	92,6	95,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	7,4	4,5
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi</b>	<b>22,9</b>	<b>23,9</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)</b>	<b>52,0</b>	<b>52,3</b>
	sanoat	46,9	47,2
	qurilish	5,1	5,1
	<b>Xizmatlar</b>	<b>25,1</b>	<b>23,8</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	7,3	6,8

		2019-yil	2020-yil
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	4,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	12,7	12,4



## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiq nisbatan % da)




YaHMning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 103,2 % (YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi – 23,9 %), sanoatda – 101,8 % (47,2 %), qurilishda – 101,6 % (5,1 %).

Shuningdek xizmatlar sohasida esa 0,4 % ga kamaydi va 99,6 % ni (23,8 %) tashkil etdi.




**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha mutlaq o`shish sur`atlari**  
(o`tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020-yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi tarmog`ida YaHMning mos ravishda 0,6 f.p. (2019-yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.) ga o`shishiga hissa qo`shdi. Sanoatda 0,8 f.p., qurilishda 0,1 f.p., mahsulotlarga sof soliqlarda 0,1 f.p. darajasida baholandi.



## 2020-yil yanvar-iyun oylarida YaIM o'rishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020-yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,0 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 121,4 % va qurilishda – 119,5 % qayd etildi.



## Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

